Xalqaro Ilmiy Kengashning Uchinchi Bosh Assambleyasi

Xalqaro Ilmiy Kengash (ISC) 2025 yilning 29–31 yanvar kunlari Ummonning Maskat shahrida o‘tkazilgan uchinchi Bosh Assambleyani muvaffaqiyatli yakunladi. Mazkur tadbir ISC a’zolari, stipendiatlar va ilmiy hamjamiyat vakillarini jahon ilm-fani kelajagini strategik rejalashtirish yo‘lida muhokama o‘tkazish uchun bir joyga to‘pladi.



Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi Antoniu Guterrish Xalqaro Ilmiy Kengash va uning a’zolari bilan ISC Uchinchi Bosh Assambleyaga murojaat bilan o‘rtoqlashdi. U «Ilm-fan orqali birlashish bizning umumiy muammolarimizni hal qilishda muhim ahamiyatga ega – iqlim inqirozini hal qilishdan, global pandemiyalarga qarshi kurashishgacha, rivojlanayotgan texnologiyalar keltirib chiqaradigan xavfni o‘z zimmasiga olishgacha», deb ta’kidladi.

Assambleya davomida O‘zbekiston Fanlar akademiyasining vitse-prezidenti S. Mirzayev bir qator olimlar bilan uchrashuvlar o‘tkazdi. Jumladan, u ISC prezidenti Piter Glyukman, Turkiya Fanlar akademiyasining prezidenti Muzaffer Sheker hamda Germaniya, Fransiya, Rossiya, AQSh va Tojikiston ilmiy kengashlari vakillari bilan uchrashib, hamkorlik istiqbollarini muhokama qildi.





Assambleya kun tartibida 2025–2028 yillarga mo‘ljallangan ISC Strategik rejasining asosiy yo‘nalishlari muhokama qilindi. Ushbu yo‘nalishlar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

Ilm-fanning erkinligi, mas’uliyati va inklyuzivligi;

Xalqaro ilmiy kun tartibini shakllantirish;

Ilm-fan va ilmiy tizimlarning rivojlanishi;

Ilmiy diplomatiya.

Bu ustuvor vazifalar xalqaro ilmiy hamkorlikni mustahkamlash, global miqyosda ilmiy tadqiqotlarning barqaror rivojlanishiga erishish va jahon ilm-fani oldida turgan dolzarb muammolarni hal etishda muhim qadam hisoblanadi.

Xalqaro Ilmiy Kengashning uchinchi Bosh Assambleyasi jahon ilm-fanining rivojlanish yo‘nalishlarini belgilab beradigan strategik yo‘nalishlarni ishlab chiqishda muhim voqea bo‘ldi. Bu yangi bilimlar yaratish, global muammolarni hal etish va ilmiy hamkorlikni kengaytirishda katta ahamiyat kasb etadi.